

**MILLIY MEROSNI O'RGANISH – MUKAMMAL DARSLIK YARATISH
ZAMINI**

Sh. Yuldasheva

dots TDPU

D. Miraliyeva

dots Xalqaro Nordik universiteti

L. Tulesheva

TDPU 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada “Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari” mavzuning mustaqillik yillarida yaratilgan boshlang‘ich sinflar Davlat ta‘lim standarti, dasturlari va “Ona tili” darsliklarida yoritilishi haqida fikr yuritiladi.*

Darsliklarni yanada mukammallashtirish borasida ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan jihatlar yoritib beriladi.

Аннотация. *В данной статье рассматривается освещение темы «Виды речи по цели высказывания» в Государственном образовательном стандарте, программах и учебниках «Родной язык», созданных в годы независимости.*

Выделены аспекты, которым следует уделить внимание в дальнейшем совершенствовании учебников.

Annotation. *This article examines the coverage of the topic “Types of speech according to the purpose of the statement” in the State educational standard, prog-rams and textbooks “Native language” created during the years of independence.*

Aspects that should be paid attention to in the further improvement of textbooks are highlighted.

Kalit so‘zlar. *Milliy meros, darslik, Konsepsiya, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, Davlat ta‘lim standarti, dastur.*

Ключевые слова. *Национальное достояние, учебник, Понятие, типы предложений по цели выражения, изъявительное предложение, вопросительное предложение, повелительное предложение, Государственный образовательный стандарт, программа.*

Keywords. *National treasure, textbook, Concept, types of sentences by purpose of expression, Indicative sentence, Interrogative sentence, Imperative sentence, State educational standard, program.*

Zamonaviy ta‘lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g‘oyaviy uyg‘unlik ta‘lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma‘naviy–ma‘rifiy zaminlariga taynish zarurligini ham anglatadi. Shu jihatdan olib qaralganda buyuk ajdodlarimiz, alloma-yu mutafakkirlarning asrlar davomida yaratgan boy ma‘naviy merosi yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati bugungi kunda ham o‘z ta‘sirini yo‘qot-gani yo‘q. Shu nuqtai nazardan bolaga o‘z ona tilisini o‘rgatadigan darsliklar yaratish borasida ham o‘ziga xos meros yaratilgan.

Respublikamiz mustaqilligi yillaridagi ta'lim tizimining taraqqiyoti bosqich-lariga nazar tashlar ekanmiz, uni shartli ravishda uchga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich — Respublikamiz ta'limining yangi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingunga qadar bosib o'tgan yo'li. Ikkinchisi esa, Respublika ta'lim taraqqiyotida muhim o'rin tutgan yuqoridagi ikki hujjat qabul qilingandan keyingi 2020-yilgacha bo'lgan davr. Uchinchisi

mustaqilning 2020 - yildan keyingi davrdir. Dastabki yillarida amalga oshirgan ulkan ishardan biri “O'zbek maktablarida ona tilini o'qitish Konsepsiyasi”ning yaratilishi bo'ldi. Mazkur hujjat 1993-yil 15-oktabrda O'zbekiston Respublikasi XTV tomonidan tasdiqlangan. Mana shu hujjat asosida darsliklar, jumladan boshlang'ich sinflar uchun ham “Ona tili” darsliklari yaratildi. Ushbu darslikda “Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari” 3-4-sinflarda nazariy o'rganish ko'zda tutilgan. 3- sinfda gapning ifoda maqsadiga ko'ra har bir turi alohida-alohida o'rganiladi. 4-sinfda o'quv yilining boshida o'tilganlarni takrorlash jarayonida gapning ifoda maqsadiga ko'ra uch turi yuzasidan quyidagicha nazariy ma'lumotlar beriladi.

Har bir gap biror maqsad bilan aytiladi. Gaplar xabar, so'rash, buyuruq, maslahat mazmunini bildiradi.

Habar mazmunini bildirgan gap darak gap deyiladi. Yozuvda darak gapning oxiriga nuqta qo'yiladi.

So'rash mazmunini bildirgan gap so'roq gap deyiladi. Yozuvda so'roq gapning oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi.

Buyruq, maslahat, iltimos mazmunini bildirgan gaplar buyruq gaplar deyiladi. Yozuvda buyruq gapning oxiriga ko'pincha nuqta qo'yiladi.¹⁶ Bu nazariy bilimlar yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilish uchun 15ta mashq berilgan.

1999-yil Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi e'lon qilindi.¹⁷ Amaldagi darsliklar mana shu hujjat asosida qaytadan ishlendi. Yillar o'tishi mobaynida o'qitish tizimida qator o'zgarishlar yuz berdi, yaratilgan standart va dasturlar mukammallashtirildi.¹⁸ Natijada darsliklar yana qayta ishlendi. 2010-yilda Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi e'lon qilindi.¹⁹ Bu hujjat asosida darsliklardagi takror mavzular, o'quvchilar o'zlashtirishi qiyin bo'lgan mavzular qayta ko'rib chiqildi.

Mazkur ta'lim standartida²⁰ 1-2-sinflarda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari to'g'risida nazariy bilim berish nazarda tutilmagan. 3-sinfda darak gap, so'roq gap, buyruq gap, undov gap haqida bilim berish, gaplarni ifoda mazmuniga ko'ra farqlay bilish; gaplarni ohangga rioya qilib o'qiy olish ko'nikmalarini hosil qilish, 4-sinfda esa gaplarni ifoda mazmuniga ko'ra farqlay olish; gaplarni ohangga rioya qilib o'qish va yozma to'g'ri shakllantira olish ko'nikmalarini shakllantirish belgi-langan. Umumta'lim fanlarini

¹⁶ Ikromova R., Azizova A., Sh. Yo'ldosheva, X.Gulomova, D. Shodmonqulova Ona tili 4-sinf –T.: 1998, 8-b.

¹⁷ Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi // O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. - T.: „Sharq“, 1999.

¹⁸ Boshlang'ich ta'lim bo'yicha Yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti/ „Boshi. ta'lim“ jurnali. — Toshkent, 2005. — № 5, 6, 8—9-betlar.

¹⁹ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi –T.: 2010

²⁰ Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Ona tili O'qish Matematika Atrofimizda olam Tabiatshunoslik (1 – 4 sinflar)

o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomil-lashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish maqsadida 2017- yil- 6- aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 187-sonli qarori tasdiqlandi. Standart va dasturlar kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta yaratildi. Unga ko'ra 1-sinfda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlariga 2 soat ajratildi va bu vaqt davomida quyidagi mavzularni o'rganish ko'rsatib o'tildi:

Xabar mazmunini, so'roq mazmunini bildirgan gaplar, kishilarning his-hayajonini bildirgan gaplar, ularni mazmuniga ko'ra farqlash, gapning oxiriga mazmuniga mos tinish belgilarni, ya'ni nuqta, so'roq va undov belgilarni qo'yish.

Yuqoridagi ko'rsatmalar yaratilgan darslikda ham o'z aksini topgan.

1-2-sinfda gapning ifoda maqsadga ko'ra turlari haqida nazariy ma'lumot berilmagan.²¹ 3-sinfda "Gap" mavzusiga 30 soat ajratilgan. Shu vaqt mobaynida "Gap. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak gap, so'roq gap, buyruq gap, istak gap" haqida nazariy bilim berish, ular yuzasidan ko'nikma va malakalar hosil qilish ko'rsatilgan. 4-sinfda o'quv yili boshida takrorlash davrida "Gap" bo'limiga 6 soat ajratilib, unda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, yuzasidan quyi sinflarda o'tilganlarni takrorlash nazarda tutiladi.

XXI asr ilm-fan texnikaning rivojlanish asri bo'ldi. Bu holat ta'lim-tarbiya oldiga ham yangi vazifalarni qo'ydi. Natijada 2020-2021 –o'quv yillarida Milliy dastur va u asosida yangi darsliklar yaratilib amaliyotga joriy qilindi. Milliy dasturda Ona tili fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar alohida ko'rsatildi. Bu talablar quyidagi parametrlarni o'z ichiga olgan.

- 1.Og'zaki nutq malakasi
- 2.Yozma nutq malakasi
3. Anglash malakasi: o'qish va tushunish, tinglab tushunish
4. Lingvistik malaka (fonetika, imlo, leksikologiya, morfologiya, sintaksis)

Lingvistik malakaning sintaksis qismida OTBMT.L.S.1 raqami ostida so'z birikmasi, gap va uning turlarini farqlay olish va nutqida to'g'ri qo'llash ko'rsatilgan. Dastur davomida umumiy o'rta ta'lim o'quvchiiga ona tili fanidan qo'yiladigan talablar sinflar kesimida yoritilgan. Mazkur dasturda gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari faqat 4-sinfda o'rganish ko'zda tutilgan va bu maqsad quyidagicha ifodalangan. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini bilish, ular imlosiga rioya qilish (OTMT.4.LK.TII.9) Ammo 4-sinf uchun darslik yatilmadi.

2023-2024 o'quv yilida rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish natijasi sifatida Yangi avlod darsliklari yaratildi va amaliyotga joriy qilindi. Darslikdagi

lingvistik ma'lumotlar 2017-yildagi o'quv dasturi asosida berilgan. (Alohida Davlat ta'lim standarti va dastur yaratilmagan) Bu darslikka ko'ra o'quvchilar gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari bilan 3-sinfda tanishadilar. Gaplarning ufoda maqsa-diga ko'ra

²¹ Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili 2-sinfi uchun darslik-T.: 2018 117-b.

turlarining berilish tartibi avvalgi darsliklardan farq qilib quyidagicha berilgan: darak gap, buyruq gap, so‘roq gap.

Nazariy ma’lumotlar aynan avvalgi darsliklardan olingan. Negadir qoidani yod oling topshirig‘i berilgan.

Demak, ”Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari” mavzusining boshlang‘ich sinflarda o‘rganilishining o‘z tarixi bor va nazariy, amaliy asoslari mavjud. Ular necha yillik tajribalardan o‘tgan. Shu nuqtai nazardan bu mavzu ta’lim standartlari va dasturlarga kiritilishi, darsliklarda o‘z aksini topishi maqsadga muvofiqdir. Biz bu maqolamizda birgina mavzu haqida fikr yuritdik. Keyingi yillarda yaratilayotgan darsliklarga kiritilgan har bir mavzu yuqoridagi kabi keng tahlil qilish, o‘rganishni taqozo qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromova R., Azizova A., Sh. Yo‘ldosheva, X. Gulomova, D. Shodmonqulova Ona tili 4-sinf –T.: 1998, 8-b.

2. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi // O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining axborotnomasi, 7-maxsus son. - T.: „Sharq“, 1999.

3. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha Yangi tahrirdagi davlat ta’lim standarti // „Boshi. ta’l“ jurnali. — Toshkent, 2005. — № 5. 5, 6, 8—9-betlar.

4. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi Ona tili O‘qish Matematika Atrofimizda olam Tabiatshunoslik (1 – 4 sinflar)

5. Qosimova K., Fuzailov S., Ne‘matova A. Ona tili 2-sinfi uchun darslik-T.: 2018

6. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldosheva Sh. Ona tili 3-sinfi uchun darslik-T.: 2017

7. Toirova M. . Ona tili 3-sinfi uchun darslik I qism -T.: 2023